



**NODAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA  
TARBIYALANUVCHI BOLALARINING AXLOQIY  
MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA IJODKORLIGINI  
INTERAKTIV METODLAR BILAN ISHLASH ORQALI  
RIVOJLANTIRISH**

**Xallokova Maksudaxon Ergashevna**

FarDU, Maktabgacha ta'lim kafedrası katta o'qituvchisi, (PhD)

**V.O.Abdurahimova**

FarDU, Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

**ARTICLE INFO**

Qabul qilindi: 10-May 2023 yil

Ma'qullandi: 13-May 2023 yil

Nashr qilindi: 15-May 2023 yil

**KEY WORDS**

*mashg'ulot, ta'lim, tadkilot, innovatsiya, interaktiv, refleksiya, enerjayzer.*

**ABSTRACT**

*Maqolada maktabgacha ta'lim muassasalaridagi bolalar intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda, tarbiyachilar tomonidan pedagogik jarayonni tashkil etishda interaktiv metodlardan foydalanishning samarali usullari kursatilgan.*

Innovatsiya tushunchasi fanda arsenaliga 40-yillardan boshlab mustahkam kirib kela boshladi, shuning uchun "innovatsiya" zamonaviy ilmiy-texnikaviy inqilob namoyon bo'lishining eng muhim shakllaridan biri ekanligi bejiz emas. Innovatsiyalar nazariyasining asoschilari nemis olimlari V.Zombart. Ushbu qoidalarni ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik jarayonlar bilan bog'liq holda qo'llagan V. Metcherlix va avstriyalik I. Shumpeter. Keyinchalik bu tushunchalar ta'lim tizimiga kiritilgan barcha yangi narsalarni ifodalovchi pedagogik ishlarda qo'llanila boshlandi.

Pedagogik innovatsiyalar dagi yangilikni ifodalaydi pedagogik faoliyat, ta'lim va ta'lim mazmuni va texnologiyasini o'zgartirish, ularning samaradorligini oshirish. Zamonaviy pedagogika jadal rivojlanib, o'zgaruvchan jamiyat ehtiyojlarini va ta'limdagi amaliy ishlanmalarni aks ettiruvchi yangi tushunchalar, yondashuvlar, o'qitish texnologiyalari bilan to'ldirilmoqda. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida murg'ak qalblarga ta'lim tarbiya berayotgan tarbiyachilarning oldilarida eng muxim vazifalaridan biri ham bolalarning bunyodkorlik hislarini tarbiyalash, ijodkorlik va kreativlik ko'nikmalarini tarbiyalash, qolaversa tabiat yaratgan boyliklardan oqilona foydalanish ruxida tarbiyalashdan iborat bo'lishi lozim.

So'nggi yillardagi ta'lim-tarbiya mazmuni, shakli, vosita va metodlarini yangilashga e'tibor berish, maktabgacha ta'limga oid innovatsiyalarni izlash, uni ta'lim-tarbiya jarayoniga, tarbiyachilarning pedagogik faoliyatiga kiritib borishda malaka oshirish tizimining ahamiyati kattadir. Ayniqsa, pedagogik jarayonga ilg'or pedagogik texnologiyalarni tatbik etish, innovatsiyalarni joriy etish, o'qituvchi va tarbiyachilarni zamonaviy usullardan foydalanish, ko'nikma va malakalari bilan qurollantirish malaka oshirish tizimi oldiga qo'yilgan vazifalar zamirida amalga oshirilmoqda. Hozirgi vaqtda dunyo psixologlari ta'kidlaganidek, «indigo»

bolalar dunyoda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni kattalardanda tez sezmoqdalar. Shuning uchun bugungi kun tarbiyachilari oldida bir qator dolzarb vazifalar turibdi. Shulardan biri ta'lim jarayonida interaktiv usullardan foydalanishdir.

«MTM tarbiyachilari qaysi interaktiv usullardan qanday foydalana oladi?» degan xakli savol tugiladi. «...Pedagog bolalarimizga zamonaviy bilim bersin deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyning o'zi ana shunday bilimga ega bulishi kerak». Maktabgacha yoshdagi bolalarda interaktiv usullardan foydalangan holda ijodkorlik xissini tarbiyalash borasida olimlarning bildirgan fikrlarini tahlil qilishni maqsadga muvofiq. Jumladan, N.L.Figurin, M.P.Denisova, M.Yu.Kitsyakovskaya, A.Vallon, D.B.Elkonin, E.A.Arkin, S.Fayans, Sh.Byuler, F.I.Fradkinalarning asarlari alohida axamiyatga molikdir. Tarbiyachilarni interaktiv usullardan oqilona, maqsad va sharoitga muvofiq tarzda didaktik tamoyillarga asoslangan holda foydalanishga o'rgatish bugungi kunda zamonaviy pedagogikaning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. MTT tarbiyachilari o'z faoliyatlariga zamonaviy usullarni maktabgacha ta'limga oid ilmiy maqolalar, risolalar, mahalliy ilg'or tajribalarni o'rganish orqali tatbiq etib kelmoqdalar. Ba'zan, interaktiv usullarning mohiyati va maqsadini to'liq anglamagan holda qo'llamoqdalar. Shuning uchun malaka oshirish jarayonining o'zida interaktiv o'quv muhiti yaratilib, tarbiyachilar uning bevosita ishtirokchisiga aylansalar, ya'ni xar bir interfaol usulni bevosita o'zlaridan o'tkazib o'zlashtirsalar, ushbu usullarni maktabgacha ta'limga moslashtirib, amaliyotga tatbiq etishlari shunchalik oson va qulay kechadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida interaktiv usullardan «Aqliy hujum», «Rolli o'yin», «Kichik guruhlarda ishlash», «Bahs munozara», «Galereyaga sayr», «Klaster», «Bumerang», «Enerjayzerlar»dan foydalanish mumkin. Tarbiyachi mashg'ulot o'tkazish jarayonida mashg'ulotning boshi va ohirida mavzu yuzasidan bolalarning tushunchalarini aniqlash hamda olgan bilimlarini mustahkamlash uchun aqliy hujum usulidan foydalanishi maqsadga muvofiq. «Kichik guruhlarda ishlash» bolalarning o'zaro muloqot va fikr almashuviga asoslanadi. Bunda guruhda tahlil qilish, tekshirish asosida berilgan mavzu ishlab chiqiladi. «Rolli o'yinlar»da bolalarga biror muammoli vaziyat beriladi. Bolalar bu metod yordamida real hayot holatlarini jonlantiradilar. Bahs-munozara metodida bolalarga bir kun oldin mavzu beriladi. Bolalar savollarga ota-onalaridan so'rab javob topib keladilar hamda berilgan savollarga javoblar «bahs-munozara» asosida olib boriladi. Pedagogik texnologiya - bolani mustaqil ijod qilish, bilim olish, fikrlashga o'rgatishni kafolatlaydigan jarayondir.

Metodika - pedagogning bilimi, ko'nikmasi, mahorati, shaxsiy sifatlari, temperamentiga bog'liq bo'lib, ma'lum shaxs, pedagog uchun qulay bo'lgan o'qitish usullari va yollari majmuidir. U alohida metodikalarga ajratiladi: Pedagogika fani ma'lum o'quv fanlarini o'qitish qonuniyatlarini tadbiiq qiladi. Bolaga bilimlar tayyor holda berilmaydi, u kelgusida bilimlarni manbalardan mustaqil ola bilish, fikrlay olish, mustaqil pozitsiyada ko'ra olishga o'rgatiladi. Barcha bolalarni o'z qobiliyatlari ehtiyojlari darajasida albatta o'zlashtirib olishlari kafolatlanadi.

Yuqoridagi fikrlardan hulosa qilib qo'yidagilarni aytish joiz:

- maktabgacha yoshdagi bolalar qiziquvchan, xarakatchan, tashabbuskor, erkin fikrlovchi, kuzatuvchan, sog'lom bo'lishi kerak. Hozirda har bir bola erkin ijod qilishi va o'zining qobiliyatini ko'rsata olish huquqiga ega. Noan'anaviy mashg'ulotlarda ilg'or pedagogik texnologiyalarga asoslangan holda mehr bilan bolalarga iqtidorini namoyon qilishiga sharoit

yaratib berishimiz zarur. Tarbiyachilarning o'tayotgan mashg'ulotlari zamon talablari asosida bo'libgina qolmasdan, tarbiyalanuvchining o'zi ham bu mashg'ulotdan zavq olsin;

- maktabgacha ta'lim muassasalarida maktabga tayyorlashda bolalarni har tomonlama faollashtiruvchi usullar-interaktiv metodlardan foydalanish zarurdir, chunki ilg'or pedagogik texnologiyalar, noan'anaviy usullar bilan ta'lim-tarbiya berish hozirgi davrda juda yaxshi samara beradi, ta'lim sifatini oshiradi; Tarbiyachi tomonidan qo'llaniladigan interaktiv usullar bolalarning qiziqishi va extiyojlarini qondiradigan darajada tashkil etilishi maktabgacha ta'limning sifatini oshiruvchi muhim omil hisoblanadi.

**Foydalangan adabiyotlar:**

1. E.Ramakaeva Odarenno'e i deti indigo: kak ix raspoznat. G'G' «Boshlang'ich ta'lim», 2016, 3-son.
2. «O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiyalashtirish - yuksak ma'naviyatli kelajak avlodni tarbiyalash negizidir» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. - T., 2009.
3. Usmanova, M. (2020). 6-7-YOSHLI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIMIY MASHGULOTLARNING ORNI. Jurnal doshkolnogo obrazovaniya,
4. Usmonova, M. (2021). KICHIK MAKTAB YOSHDAGI BOLANING MOTIVATSIYA SOHASI RIVOJLANISHI: KICHIK MAKTAB YOSHDAGI BOLANING MOTIVATSIYA SOHASI RIVOJLANISHI. Jurnal doshkolnogo obrazovaniya, 2(2).
5. Usmanova, M. (2020). THE CONCEPT OF EDUCATIONAL PROFESSIONAL COMPETENCE AND ITS YIELD FACTORS. Arxiv Nauchno'x Publikatsiy JSPI.
6. Gulbahor Hamidova. The importance of using interactive techniques in preschool education system.
7. Ergasheva D. BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARIDA MA'NAVIY-AXLOQIY SIFATLARNI TARBIYALASH //Бюллетень педагогов нового Узбекистана. – 2023. – Т. 1. – №. 5. – С. 51-53.
8. Ergasheva D. BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARIDA TO 'G 'RI O 'QISH KO 'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. B8. – С. 1675-1678.
9. G. Xamidova., F.Numonjonova. Maktabgacha yoshdagi bolalar intellektual qobiliyatlari-ni interaktiv metodlar orqali rivojlantirish. Ta'lim, fan va innovatsiya, 2020G'2
10. Abdurahmonovna, N. M. (2021). Pedagogical and Psychological Aspects of Professional Sustainability of Future Teachers. 9. Xasanova, G. (2021). OLIY